

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2021 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rincbosarlar: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

| | |
|---------------------------------|--------------------------------|
| Isa Habibbeyli (Ozarbayjon) | Maria Sabtelni (Kanada) |
| Frederik Bressand (Fransiya) | Timur Kocaoğlu (AQSH) |
| Ingeborg Baldauf (Germaniya) | Almaz Ülvi (Ozarbayjon) |
| Mark Toutant (Fransiya) | Tanju Seyhan (Turkiya) |
| Rochelle Almeida (AQSH) | Xisao Komatsu (Yaponiya) |
| Akrom Habibullayev (AQSH) | Emek Üşenmez (Turkiya) |
| Valeriy S. Xan (O'zbekiston) | Abdulvahap Kara (Turkiya) |
| Eunkyung Oh (Janubiy Koreya) | Alizoda Saidumar (Tojikiston) |
| Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston) | Dilorom Ashurova (O'zbekiston) |
| Shodmon Vohidov (Tojikiston) | Darya Jigulskaya (Rossiya) |

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

| | |
|---------------------------------|--|
| Editor-in-Chief: | Shuhrat Sirojiddinov |
| Deputy Editors in Chief: | Zaynabiddin Abdirashidov Kasimbay Mamurov |
| Executive secretary: | Ozoda Tajibaeva |

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybullha Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

| | |
|---------------------------------|-------------------------------|
| Isa Habibbeyli (Azerbaijan) | Maria Subtelny (Canada) |
| Frederique Bressand (France) | Timur Kozhaoglu (USA) |
| Ingeborg Baldauf (Germany) | Almaz Ulvi (Azerbaijan) |
| Marc Toutant (France) | Tanju Seyhan (Turkey) |
| Rochelle Almeida (USA) | Hisao Komatsu (Japan) |
| Akram Habibullaev (USA) | Emek Üşenmez (Turkey) |
| Valeriy S. Khan (Uzbekistan) | Abdulvahap Kara (Turkey) |
| Eunkyung Oh (South Korea) | Alizoda Saidumar (Tajikistan) |
| Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan) | Dilorom Ashurova (Uzbekistan) |
| Shodmon Vohidov (Tajikistan) | Daria Zhigulskaya (Russia) |

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Tolib Enazarov

Dialektal matnlarning leksik tahlili metodi.....6

Jo'ra Xudoyberdiyev

Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida.....19

Manzura Abjalova

Lingvistik ontologiya – leksik ma'lumotlar bazasi.....39

Dilafruz Muhammadiyeva

"Boburnoma"ning turkiy tillardagi tarjimalarida paremiyalarning aks etishi.....60

Zoxira Xidraliyeva

O'zbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal o'rghanishga doir.....74

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Shahnoza Rahmonova

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida g'azal janri poetikasi.....90

Gulnoza Jo'rayeva

Bolalar hajviy she'riyati – ma'rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida.....103

Din. Falsafa. Ilohiyot

Bahriddin Umurzoqov

"Rashahot" asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni.....118

CONTENT

Linguistics

Tolib Enazarov

Method of lexical analysis of dialectal texts.....6

Jura Khudoyberdiyev

About aims and Organization of the first Turkological Conference.....19

Manzura Abjalova

Linguistic Ontology - Lexical Database.....39

Dilafruz Muhammadieva

Reflection of paremies in the translations of “Boburnoma”
in turkish languages.....60

Zakhira Khidralieva

On the study of the Ikan dialectvocalism of the Uzbek language.....74

Literature. Translation studies

Shahnoza Rahmonova

Poetics of the ghazal genre in uzbek poetry of the second
half of the XX century.....90

Gulnoza Jurayeva

Children's comic poetry as a mean of educational and
aesthetic education.....103

Religion. Philosophy. Theology

Bahriiddin Umurzoqov

Detailed analysis of the foundations of the Khojagon tariqat
in the work “Rashakhot”.....118

Lingvistik ontologiya – leksik ma'lumotlar bazasi

Manzura Abjalova¹

Abstrakt

Jahonda inson faoliyatining bilim talab qiladigan zamonaviy sohalari rivojlanishi kompyuter texnologiyalari rolining oshishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda axborot oqimi sezilarli darajada ko'paymoqda, endi ularni saqlash, taqdim etish, formallashtirish va tartibga solish, shuningdek, avtomatik qayta ishslashning yangi usullarini izlash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bois turli amaliy maqsadlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan keng qamrovli bilim bazalariga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, inson omilisiz matndan har qanday ma'lumotni chiqarib oluvchi neyroto'rlargan asoslangan tizimlarga ehtiyoj katta. XX asr yarmida butunjahon tarmog'i bilan bir qatorda semantik veblar paydo bo'ldi, unda gipermatnlı sahifalardagi elementlar semantikasini haqida axborot tashuvchi qo'shimcha teglar bilan ta'minlandi. Semantik vebning ajralmas qismi ontologiya tushunchasi bo'lib, u so'zlar tarmog'idan iborat leksik ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Mazkur maqolada ontologiya terminining yuzaga kelishi, faylasuflarning ontologik qarashlari, tezaurus va ontologiya konseptlari tahlil qilindi. Axborot-qidiruv tizimlari tezaurusini yaratish omillari yoritildi.

Kalit so'zlar: *ontologiya, lingvistik ontologiya, tezaurus, axborot-qidiruv tizimlari, semantik munosabatlar.*

Kirish

Hozirgi axborot va raqamli texnologiyalar asrida ulkan hajmdagi elektron hujjatlar ma'lumotlari (matnlar)ni qayta ishslash usullarining sifati va samaradorligini oshirishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Strukturalanmagan matnli ma'lumotlarni qayta ishslashning faol rivojlanayotgan sohalariga axborot qidirish,

¹Abjalova Manzura Abdurashetovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: abjalovamanzura@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-1927-2669

Iqtibos uchun: Abjalova, M.A. (2021) "Lingvistik ontologiya – leksik ma'lumotlar bazasi". O'zbekiston: til va madaniyat 4: 39-59.

matnlarni filtrlash, ular (hujjat)larni to'plash va saralash, savollarga javob topish, matnlarni avtomatik annotatsiyalash, o'xshash va dublikat matnlarni qidirish, matnlarni segmentlash kabi vazifalar kiradi.

Zamonaviy axborot qidirish hamda axborot-tahlil tizimlari keng va cheklanmagan mavzularda, chegaralanmagan turdag'i o'zaro munosabatlarga kirishadigan tushunchalarni qamrab olgan minglab atributlariga ega bilim sohalaridagi matnli ma'lumotlar bilan ishlaydi. Bunday tizimlarda matnli ma'lumotlarni qayta ishlashdagi zamonaviy usullarning o'ziga xos xususiyati – bu dunyo va til haqidagi bilimlardan minimal darajada foydalanilib, gap, matn, matnlar to'plamida so'zlarning uchrash (yoxud qo'llanilish) chastotasi hisobga olingan statistik usullarga tayaniladi. Ushbu usulda asosiy jarayonlarni odam bajarganda, u matnning mazmuni, uning asosiy mavzusi va ichki mavzularini aniqlashi kerak, buning uchun til va dunyo haqidagi hamda katta hajmdagi izchil matnlarni yaratish bilimlariga ega bo'lishi kerak. Ammo axborot qidirish va matnlarni avtomatik qayta ishlash dasturlarida qo'llaniladigan lingvistik va ontologik bilimlarning yetishmasligi turli muammolarni yuzaga chiqaradi. Bilimlar yetishmasligi, aniqroq aytganda, ushbu tizimlarda leksik ma'lumotlar bazasidagi so'zlararo munosabatlarning malakali mutaxassislar tomonidan to'liq shakllantirilmaganligi ahamiyatsiz yoki zaruriylik darjasini past qidiruv natijasini beradi. Ma'lum bo'lganidek, ontologik baza yaratishdagi bilimlarning yetishmasligi yoxud tizimning mukammal shakllantirilmaganligi satri uzun so'rov (kengaygan so'z birikmasi, kengaygan gap, yoyiq nom)larni qayta ishlashda, savol-javob tizimlarida savollarga javob izlashda murakkablashadi.

So'nggi vaqtarda tibbiy, ilmiy, bank-moliya, siyosiy kabi axborot qidirishning ixtisoslashgan turlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va bunday axborot tizimlarining sifatini ta'minlashda fan sohalaridagi bilimlarning o'rni muhim. Umuman, matnga avtomatik ishlov berishning zamonaviy usullari yordamida dasturiy tizimlarga til va dunyo haqidagi bilimlarni kiritish qiyin vazifa sanaladi. Buning yechimi esa til va dunyo to'g'risidagi bilimlarning maxsus yaratilgan manba (tezaurus, ontologiya)larda aks etishi bilan bog'liq, bunday manbalarda o'n minglab so'zlar va iboralar tavsifi, boshqa so'z va birliklar bilan semantik-sintagmatik munosabatga kirishish va mantiqiy xulosa chiqarish imkoniyatlari bo'ladi. Ulardan foydalanilganda, odatda, so'zlarning ko'p ma'nolilik, omonimlik va polifunksionallik xususiyatlari avtomatik tarzda hal qilinadi.

Shuningdek, har qanday resursning bazaga kiritilishi yoxud istalgan manbaga tayanilishi fan sohasining rivojlanishiga to'siq bo'ladi, shu bois til va dunyo haqidagi bilimlarga asoslangan tarmoqlangan leksik ma'lumotlar bazasini yaratish, bu jarayonda bilimlarni ham, matnni qayta ishslashning eng yaxshi zamonaviy statistik usullarini ham hisobga oladigan kombinatsiyalangan usullarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Falsafada ontologiya masalasi

Insoniyat butun ongli hayoti mobaynida o'zini va qurshab turgan olamni anglab yetishga intilib keldi. Ammo uning dastlabki bilimlari uzuq-yuluq, bir-biriga bog'lanmagan bilimlar yig'indisidan iborat edi. Bora-bora inson o'zi va atrofidagi intellektual kuchlar to'plagan bilimlarni tartibga solish, sistemalashtirish va tasnif qilishga kirishib ketdi. Bu bilimlarning hammasi yagona tizimga solib umumlashtirilsa, insoniyatning borliq haqidagi bilimlari tizimi vujudga keladi [To'rayev 2011, 5].

Borliq haqidagi ta'limot falsafaning eng muhim markaziy fundamental masalasi hisoblanadi. Falsafa fanining borliq haqidagi masalalarni o'rjanuvchi qismi ontologiya deb ataladi.

Ontologiya (yun. *ontos* [ὄντος] – borliq va logiya [λόγος] – ta'limot) aslida falsafa bo'limi, borliq haqidagi ta'limot. Borliqning umumiylashtirilgan asoslari, prinsiplari, uning shakllari va qonuniyatlarini tekshiradi. Ontologiya terminini nemis faylasufi R.Goklenius [Goklenius 1613] fanga 1613-yil kiritgan, so'ngra X.Volf (1679 – 1754) darsligida qo'llagan (1730-yil) bo'lsa-da, dastlab yunon faylasuflari uning turli talqinlarini bayon etganlar. Yunonlar ontologiyani "haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta'limotdir", deb hisoblashgan. Aflatun g'oyalar ontologiyasini yaratgan. U aql bilan erishiladigan mohiyatlar iyerarxiyasini tashkil etadi. G'oyalar ontologiyasining yuqori nuqtasida farovonlik g'oyasi, ideal namunalar, sonlar, geometrik shakllar yotadi. Yunon faylasuflari *ontologiya* terminining ma'nodoshi sifatida *metafizika* terminini ham qo'llashgan.

Markaziy Osiyoning Yaqin va O'rta Sharqida IX-X asrlarda ijod qilgan Kindiy, Zakariyo, Roziy, Forobi, Ibn Sino singari mutafakkirlar yunon faylasuflaridan farqli ravishda ontologik ta'limotni butunlay yangi bosqichga ko'tarishdi. Masalan, Forobiy ontologiyaga yagona borliqning mohiyatini ochib beruvchi ta'limot sifatida yondashgan [To'rayev 2011].

Rus faylasufi A. G. Spirkin shunday yozadi: "Barcha mavjud

narsalar borliqqa mansubdir. Ularga moddiy jismlar ham, barcha jarayonlar (fizik, kimyoviy, geologik, biologik, ijtimoiy, psixologik, ma'naviy) ham, ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari ham kiradi [Спиркин 2000, 243]. Ayon bo'ladiki, borliq – ontologiyada aloqalar va munosabatlar birlamchi hisoblanadi. Mazkur terminning mana shu xususiyati uning boshqa sohalarda ham keng qo'llanilishi-ga sabab bo'ldi.

Umuman, manbalar bilan tanishganda, qadim dunyo, o'rta asrlar olimlarining falsafiy qarashlarida ontologik konsepsiya asosida "borliq" va "mohiyat" kategoriyalarining subordinatsiyalashgan (toifali bo'ysinishga ega) tizim ekanligini anglash mumkin. Hatto ilmiy yo'nalishda ham ontologiya yaxlit tuzilishga ega, tarkibiy sinflari obyektlari to'plami hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga olgan konseptual sxema shaklidagi ma'lum bir predmet sohasi bilimlarini tashkil etish deb tushuniladi.

Demak, "ontologiya" termini ko'plab sohalarda qo'llaniladi va ikki ma'noga ega:

- 1) "borliq" va "mohiyat"ni o'zida namoyon etuvchi falsafiy tushuncha;
- 2) elementlarning mazmunini tavsiflaydigan, ular o'rtasida tarmoqli munosabat o'rnatilgan tizim.

Falsafada ontologianing *predmeti* mohiyat, kompyuter lingvistikasida esa bilim sohalari hisoblanadi.

Falsafada ontologianing *obyekti* inson, kompyuter lingvis-tikasida esa atributlar, ya'ni so'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari sanaladi.

Ontologiyada obyektlar, ya'ni lingvistik birliklar atributlarda belgilab beriladi. Har bir atribut hech bo'limganda nom va qiymatga ega bo'lib, asosan, obyektga xos yoki u bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlash uchun xizmat qiladi.

Masalan,

Nomi: avtomobil – modeli – A

Eshiklari soni: 4

Dvigateli: {4.0L, 4.6L}

O'tkazgichlar qutusi: 6 bosqichli.

Tilshunoslikda ontologiya masalasi

Ontologiya tushunchasi uzoq vaqtidan beri ma'lum, ammo qayta ko'rib chiqilgan holda, u yaqin yillardan kompyuter texnologiyalarida faol qo'llanilmoqda. Ontologiyaga semantik tarmoq sifatidagi qarashlar XX asrning 90-yillar oxirlarida boshlangan.

Lingvistik ontologiya yoxud til ontologiyasi terminlari tilshunoslik faniga qaraganda, axborot texnologiyalari sohasida ko'proq qo'llaniladi, asosan, matnlarni avtomatik tarzda qayta ishslash uchun ixtisoslashtirilgan axborot qidirish tezaurusi, ya'ni tilning lug'at boyligini o'zida jamlagan, so'zlarning semantik munosabatlari o'rnatilgan (yoxud so'zlar tarmog'iga ega) turli maxsus lingvistik dasturiy ta'minotlarni anglatadi. Lingvistik ontologiya (LO) til borlig'i va mohiyati haqidagi fan sifatida kamdan kam tilga olinadi. LO lisoniy borliqni tahlil qilish orqali tilning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. F. de Sossur ta'kidlaganidek, "... *tilshunoslikning maqsadi tilning mohiyatini hech qanday cheklovlarisiz anglash, inson tilini uning paydo bo'lish tarixi va lingvistik xilma-xillik sabablari bilan birgalikda tilning barcha ko'rinishlari va aloqalarida hamda nutqda namoyon bo'lish shakllarida o'rganish hisoblanadi*" [Соссюр 2000, 171]. Tilning mohiyatini esa, birinchi o'rinda, nutq, so'zlash tashkil etadi. Nemis faylasufi M.Xaydegger ta'biri bilan aytganda, tilning ekzistensial-ontologik asoslarini nutq tashkil etadi [Хайдегер 2003, 187].

Borliqning asosiy sohalariga tabiat, jamiyat va ong kiradi [To'rayev 2011, 5]. Lingvistik ontologiyalarda ham tabiiy til boyligi, undan foydalanish imkoniyati va lison qamrab olinadi. Hozirgi vaqtida bilim bazalarining eng keng tarqalgan shakli ontologik tipdagi bilimlar bazasi hisoblanadi. Bugungi raqamli texnologiyalar davrida ontologiya termini bir muncha ommalashdi. Ontologiyalar – bu dunyo haqidagi bilimlarning rasmiylashtirilgan tavsifini o'z ichiga olgan kompyuter resurslari.

Ontologiya tushunchasiga turlicha ta'riflar beriladi.

Ontologiya – bu konseptuallashtirish (konseptualizatsiya) spetsifikatsiyasi, deydi rus tadqiqotchisi T.Gruber [Gruber 1993, 199-220].

Konseptuallashtirish esa narsa-predmet sohasining lug'at va aniq vaziyatga bog'liq bo'lмаган holda ko'rib chiqiladigan haqiqat tuzilishi. Masalan, stol ustidagi kubikning turishi mumkin bo'lgan o'rnilari to'plami – bu uning konseptuallashtishi, muhim kubikning ayni vaqtagi turgan holati emas, balki u turishi mumkin bo'lgan holatlar to'plamidir.

Formal jihatdan ontologiya – tushunchalar to'plami va ushbu tushunchalar haqidagi tasdiqlar to'plamidan iborat tizim bo'lib, ular asosida sinflar, obyektlar, munosabatlар, funksiyalar va nazariyalarni qurilishi mumkin [Лукашевич 2010, 83].

Lingvistik ontologiyalarni yaratish o'zbek amaliy tilshunosligi

va kompyuter lingvistikasi sohalarida yangi yo'nalish bo'lib, monografik planda hali chuqur tadqiq etilmagan. Ontologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha ishlarning aksariyati chet ellarda olib borilgan (kirish qismida sanab o'tildi), shu jumladan, Rossiyada bu sohada bir qancha tadqiqot natijalari e'lon qilingan [Андреев и др. 2005].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tildagi barcha so'zlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini yoritib berish faqat o'lik tillar uchun to'liq bajarilishi mumkin. Boisi o'lik til statik holatda qolgan bo'lib, unda taraqqiyot nolga teng bo'ladi, ya'ni "*o'lik til taraqqiyoti = 0*". Natijada tilda o'zgarish bo'lmaydi, bunday til asosida qurilgan dasturiy ta'minot bazasini qayta yangilanishiga ehtiyoj bo'lmaydi.

Ko'plab manbalarda tezaurus va ontologiya terminlari qiyosiy tahlil qilinmaganligi va har ikki terminga berilgan ta'rifning o'xshashligi sababli bunday lug'atlar imkoniyati hamda ularni yaratish mezonlari o'z chegarasi va aniqligiga ega bo'lмаган. Ushbu terminlarning kompyuter lingvistikasi hamda sun'iy intellekt kesishmasida parallel ravishda faol qo'llanilishi ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlarini yanada aniqroq taqsimlashni talab qiladi.

Lingvistik ontologiya tushuncha (taksonomik tarmoqlangan termin)lar, ularning tavsiflari va qoidalardan iborat bo'ladi.

Ontologiyalar ko'plab kompyuter dasturlari uchun [Eiji Aramaki va boshq. 2005] ma'lumot manbasi sifatida qo'llaniladi (axborot qidirish, matnni tahlil qilish, avtomatik tarjima, bilimlarni yig'ish va boshqa axborot texnologiyalari uchun). Ontologiya murakkab va xilma-xil ma'lumotlarni samarali qayta ishlashda yordam beradi [Гладун и др. 2006]. Ma'lumotlar bilan ishlashning bunday usuli dasturlar uchun insonga tushunarli bo'lgan, ammo kompyuterga ma'lum bo'lмаган semantik farqlarni tanib olishga imkon beradi.

Ontologiya ta'rifidagi bir qancha farqlarga qaramay, ko'plab tadqiqotchilar ontologiyaning asosiy komponentlari to'plami bo'yicha mushtarak fikrni bildirishadi.

Demak, ontologiyaning asosiy tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil etadi:

- tushunchalar (ayrim manbalarda *sinflar*);
- atributlar;
- munosabatlar;
- aksiomalar;
- misollar.

Ko'pincha ontologiya **tushunchalarining** juda keng talqi-

ni qo'llaniladi. Keng talqinda sinflar (ontologiya tushunchalari) mavhum va aniq, elementar va tarkibli (komponentli), haqiqatda mavjud va xayoliy bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Boshqacha qilib aytganda, sind (tushuncha) har qanday ma'lumot berilishi mumkin bo'lgan har qanday obyekt bo'lishi mumkin [Corcho va boshq. 2000].

Ontologiyada **ekzemplyar** (individ) termini ham qo'llaniladi. Bu termin ontologiya sinflariga mansub yagona obyektlarni ifodalaydi. Masalan, *mashina* sindiga *Damas*, *Neksiya*, *BMW* nomlarini ham biriktiramiz. Ushbu birliklar mashina birligi bilan tarmoqda birlashuvchi quyi elementlar hisoblangani bois ular ekzemplyarlar deyiladi.

Ontologiya birliklari (sinflar va ekzempyarlar yohud *nusxalar*) **atributlarga** ega bo'lishi mumkin. Har bir atribut nom hamda qiymatga ega bo'ladi va o'sha birlikka xos ma'lumotlarni saqlash maqsadida qo'llaniladi.

Munosabatlar soha tushunchalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir turini ifodalaydi. Ular formal ravishda n to'plam mahsulotining kichik to'plami sifatida aniqlanadi: $R: C_1 \times C_2 \dots \times C_n$ [Лукашевич 2010, 84]. Ikkilik (binar) munosabatlari qism-butun munosabatlarini misol qilib keltirish mumkin. Munosabatlar va atributlar o'rtasidagi farq shundaki, munosabatlar ikki sind o'rtasida bo'ladi, atribut esa obyektlarning ichki xususiyatlarini aniq qiymatlar orqali tavsiflaydi.

Ontologiyalardagi munosabatlarning eng muhim *taksonomik munosabat* deb ataladi (butun-qism munosabati, tur va jins munosabati, sinonimik munosabat).

Aksiomalar (xulosa qilish qoidalari) har doim to'g'ri hisoblanadigan bildirgilarni yozish uchun qo'llaniladi. Ular ontologiyaga turli maqsadlarda kiritilishi mumkin, masalan, atribut qiymatlari, munosabat argumentlari bo'yicha murakkab cheklovlarini aniqlash, ontologiyada tasvirlangan ma'lumotlarning to'g'rilingini tekshirish yoki yangi ma'lumotlarni xulosalash uchun qo'llaniladi.

Anglashilganidek, *ontologiya* termini ma'lum bir mavzu bo'yicha bilimlarni ifodalovchi tuzilmalarning keng doirasi, tizimi hisoblanadi.

Lingvistik ontologiyalar til yoki narsa-predmet sohasiga oid so'zlarning ko'p qismini qamrab oladi va ayni chog'da tushunchalar o'rtasida munosabat mavjud bo'ladigan ontologik tuzilma hisoblanadi. Shuning uchun lingvistik ontologiyalarni leksik ma'lumotlar bazasining maxsus turi va ontologiyaning alohida tipi sifatida ko'rish mumkin. Shu bilan birga, lingvistik ontologiyalar nisbatan zaif formallashtirilgan, ya'ni ular J.Sova ta'riflaganidek, "terminologik"


ontologiyalardir.

Lingvistik ontologiyalarga namunalar tarzida “Princeton WordNet” va boshqa tillarning Wordnetlarini keltirish mumkin [Corcho va boshq. 2000]. Shuningdek, lingvistik ontologiyalarga axborot qidirish tezauruslari misol bo’la oladi, chunki ularning birliklari – tavsiflovchilar, asosan, mavzu sohasining mavjud shartlariga asoslanadi [Лукашевич 2010, 89]. Shu bois ushbu tadqiqotda ontologiya, tezaurus lug’atlar, axborot qidiruv tizimlari tezaurusi, rubrikator (maxsus lug’atlar)lar konseptiga e’tibor qaratildi va, albatta, o’zbek tilining UzNet lingvistik ontologiyasini yaratish maqsadida Princeton WordNet hamda wordnet tipidagi lingvistik resurslarni yaratish tamoyillari tadqiq etildi.

Tezaurus – til xazinasi

Tezaurus (yun. “xazina”) muayyan so’zning leksik-semantik, kontekstual ma’nolarini qamragan lug’at hisoblanadi, umuman olganda, maxsus terminologiyadir. Zamonaviy ilmiy paradigmada tezaurusni bilimlar tizimi sifatida tushunishda bir nechta yondashuvlar mavjud. Jahon tilshunosligida tezaurus termini ostida ideografik lug’at turi tushuniladi, dunyo haqidagi bilimlarning kognitiv tizimi (bu ma’noda tezaurus *olam tasvir* va *mental leksika* terminlariga muvofiq) hisoblanadi, keyingi yillarda esa xorij kompyuter lingvistikasida axborot qidiruv tezauruslari va lingvistik ontologiyalar rivojlanib bormoqda, shuningdek, sun’iy intellekt tizimlarini ishlab chiqishda faol qo’llanilmoqda. Tezaurus, WordNet va boshqa ingliz tili tezauruslari mualliflari ta’kidlaganlaridek, tabiiy til leksikasi yordamida ifodalanadigan bilimlar tizimi, tildagi so’zlarning muayyan ma’nosi bilan cheklanib qolmagan mantiqiy kategoriyalar yordamida boyitilgan ontologiya hisoblanishidan qat’iy nazar tezaurus axborot va ma’lumotlarni taqdim etuvchi semantik (kognitiv) tizim sifatida o’rganiladi. Bunda semantik tizim elementlaridan konsept, tushuncha va “madaniy konstantalar”ga (izohi glossariyda) e’tibor qaratiladi. Ontologiyada ushbu elementlardan tashqari semantik munosabatlар birlamchi o’rinda turadi.

Tezauruslar matnlar to’plami yoxud til korpuslaridagi tushunchalarni, maxsus bilim sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, ta’riflari va terminlarini qamrab oluvchi leksikografik manbalar hisoblanadi. Lingvistik ontologiya (LO) til imkoniyatini borligicha, hamma soha bo’yicha qamrab olsa, tezauruslar muayyan to’plam yoxud yo’nalish, sohaga xos tushunchalar munosabati bilan cheklanadi (1-chizma).



1-chizma. Tezaurusda “*haydovchi*” so‘zining konseptlari.

Zamonaviy tilshunoslikda lug‘at birliklari o‘rtasidagi semantik munosabatlari (sinonim, antonim, paronim, giponim, giperonim va boshqalar) ko‘rsatiladigan lug‘atlarning maxsus turi sanaladi.

Tezaurus – yaqin ma’noga ega so‘zlar va so‘z birikmalari tushunchalar, konseptlar yoki deskreptor (tavsiflovchi)lar deb ataladigan birliklarga birlashtirilgan hamda ushbu tushunchalar o‘rtasida ularning iyerarxik shaklidagi semantik munosabatlari ko‘rastilgan lug‘at hisoblanadi.

Tezauruslar – muayyan fan sohalarini tavsiflashning eng samarali vositalaridan biridir. Ilk tezaurus sifatida Filon Biblslk tomonidan tuzilgan “Sinonimlar lug‘ati” tilga olinadi. Shuningdek, II-III asrlarga oid sanskrit tilida yozilgan she’riy shakldagi “Amar-Kosha” kitobi manbalarda qayd etiladi. Birinchi zamonaviy inglizcha tezaurus Piter Mark Rojer tomonidan 1805-yilda yaratilgan. U 1852-yilda nashr etilgan va o’sha vaqtidan beri qayta nashr qilinmasdan qo’llanilgan.

Izohli lug‘atdan farqli o‘laroq, tezaurus so‘z ma’nosini nafaqat tavsiflaydi, balki so‘z ma’nosini boshqa tushunchalar va ularning guruhlari bilan o‘zaro bog‘lash orqali aniqlashga imkon beradi, shu tuyayli undan sun‘iy intellekt tizimlarining bilim bazalarini to’ldirishda unumli foydalanish mumkin.

Hozirgi vaqtida so‘z ma’nosini axborot texnologiyalari, Internet va mobil ilovalar, turli dasturiy ta’minotlar hamda kompyuter yordamida matnlarni qayta ishslash tizimlarining rivojlanishi bilan zamonaviy shaklda yaratilayotgan lug‘atlarda ham yaxshi tavsifla-

nib berilmoqda va bu so'z qidiruvi bilan bog'liq natijalarni anchagina qulay va mukammal tarzda foydalanuvchiga taqdim etish imkoniyatini bermoqda. Bunday lug'atlarni bazada mavjud til soni bo'yicha quyidagicha turlash mumkin:

- 1) bir tilli ma'lumot qidiruv tezaurusi;
- 2) ko'p tilli ma'lumot qidiruv tezaurusi.

Tezaurus termini, shuningdek, axborot nazariyasida subyekt egallagan barcha ma'lumotlarning umumiyligini bildirish uchun qo'llaniladi.

Tezaurus terminida axboriy tizim sohasi va sinergetikada ma'lumotlarni qayta ishlash (tushunish) hamda qabul qilish tizimi tushunilsa, ijtimoiy sohalarda bilimlar tizimi anglashiladi.

Ayrim manbalarda tezaurus lug'at *ideografik* (semantik) lug'atga tenglashtiriladi. Ideografik lug'atda lug'at maqolalari glossema (bosh so'z)ning odatdagidek alfavit tartibida emas, balki uning ma'nolari bo'yicha (bosh so'z yoki iboraning leksik ma'nosi) shakllantiriladi. Alifbo tartibidagi lug'atlar muayyan so'z haqida biror narsani bilib olishga xizmat qilsa, ideografik lug'at ma'lum bir tushunchaga asoslangan ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni muayyan tushunchani qanday so'zlar yordamida ifodalanishi ko'rsatiladi. Ideografik lug'atda so'zdan tushuncha (so'z → tushuncha)ga o'tilmaydi, balki tushunchadan so'zlar (tushuncha → so'zlar) ga tomon fikr harakati yo'naltiriladi. Masalan, *oila* konsepti *ota, ona, farzand, o'g'il, qiz, aka, uka, opa, singil* so'zlarini qamrab oladi. Mazzkur lug'atdan foydalanish natijasida o'quvchida muayyan tushunchani turli so'zlar yordamida ifodalash, mantiqiy fikr yuritish, mental idrok etish kompetensiyalarini shakllantiradi yoxud rivojlanishiga turtki beradi. Shunday imkoniyatlarga ega bo'lismiga qaramay, o'zbek leksikografiyasida ideografik lug'atlar mukammal tarzda tuzilmagan, mavjudlari ham xalq ta'limi muassasalarida ta'lim oluvchilar uchun mo'ljallangan, muayyan nazariy masalalarga doir tadqiqotlar olib borilgan, xolos. Ahamiyati jihatidan zarur, ayniqsa, ta'lim tizimida muhim manba hisoblanmish ideografik lug'atlarni o'quvchilar (1), umumfoydalaniladigan so'zlar (2) va maxsus – sohalar uchun (3) mo'ljallab yaratilishi maqsadga muvofiq.

Yillar davomida so'zlarni avtomatik qayta ishslash va axborot qidirishning turli muammolarini hal qilish uchun ularni qo'llash texnologiyalarini tadqiq etib kelgan va rus tili tezaurusi (RuTez) yaratish ustida ish olib borgan N.V.Lukashevich hamda uning jamoasi tezauruslarni yaratish bo'yicha quyidagi xulosalarga keladi:

- tezaurus va ontologiyalar tuzilishi matnni avtomatik qayta ishslash vazifalariga maxsus moslashtirilgan bo'lishi kerak;
- tezaurus texnologiyalari so'zlarni qayta ishlovchi zamo-

naviy texnologiyalarga qarama-qarshi qo'yilmasligi kerak, balki bu sohadagi so'nggi yutuqlar organik tarzda hisobga olinishi lozim;

– bunday talablarni inobatga olgan holda, tezaurusdan foydalanish eng maqbul so'zma-so'z ishlaydigan usullar bilan solishtirilganda muammoni hal qilish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Axborot-qidiruv tezauruslari

Axborot-qidiruv tezaurusi (AQT) XXasrning 60-yillarida paydo bo'lgan, ular (standart ta'rifga muvofiq) – tabiiy tildagi terminlarning me'yoriy lug'ati bo'lib, u terminlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi, hujjatlar va qidiruv so'rovlari mazmunini izohlashda xizmat qiladi. 70-yillarga kelib axborot-qidiruv tezauruslarini ishlab chiqish bo'yicha milliy va xalqaro standartlar yaratilgan.

An'anaviy axborot-qidiruv tezauruslarini yaratishdan asosiy maqsad:

- indekslash va qidiruv uchun matnlarni tabiiy tilga tarjima qilishni ta'minlash;
- indekslash birliklaridan ketma-ketlikda foydalanishni ta'minlash;
- terminlar o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflash;
- hujjatlarni izlashda qidiruv vositasi sifatida foydalanish.

Tezauruslarning asosiy birligi terminlar bo'lib, ular *deskriptorlar* (= mualliflik terminlari) va *nodeskriptorlar* (= askriptorlar)ga bo'linadi [Лукашевич 2010, 23]. Mohiyatiga ko'ra, deskriptorlar narsa-predmet sohasi tushunchalariga mos keladi. Deskriptorlar o'rtasidagi munosabatlar, odatda, ikki turga bo'linadi: iyerarxik (pog'onali) va assotsiativ. Iyerarxik munosabatlar ko'pincha nosimmetrik va tranzitiv shaklda qayd qilinadi (batafsil 3.2-bo'limda). Har bir deskriptor narsa-predmet sohasining alohida tushunchasini o'zida aks ettirishi kerak. Deskriptor bir tarkibli va ko'p tarkibli bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2001-yilda Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengash tomonidan bir tilli axborot-qidiruv tezauruslarini yaratish standartlari qabul qilingan va mazkur standart Ozarbayjon Respublikasi (Azgosstandart), Belarus Respublikasi (Belarus Respublikasi davlat standarti), Qozog'iston Respublikasi (Qozog'iston Respublikasi davlat standarti), Qirg'iziston Respublikasi (Qirg'izstandart), Rossiya Federatsiyasi (Rossiya goststandarti), Tojikiston Respublikasi (Tojikstandart), Turkmaniston ("Turkmenstandartlari" davlat xizmati), O'zbekiston Respublikasi (O'zdavlatstandart), Ukraina (Ukraina davlat standarti) tomonidan muvofiqlashtirilgan.

Rossiya Federatsiyasi Davlat standartlashtirish va metrologiya qo'mitasining 2001-yil 4-sentabrdagi 370-son qarori bilan GOST 7.25-2001 davlatlararo standart 2002-yil 1-iyuldan boshlab Rossiya Federatsiyasining davlat standarti sifatida to'g'ridan to'g'ri kuchga kirgan. 2007-yilda esa ko'p tilli axborot-qidiruv tezauruslarini yaratish standartlari qabul qilingan.

AQTda deskriptorga nisbatan bir qancha talablar qo'yiladi:

- ilmiy va texnik terminologiyaning standartlari va ko'rsatmalariga muvofiqlik bo'lishi kerak: Z39.19 standarti (Amerika standarti, 5.4.4-bo'lim)da bu muvofiqlik *literary warrant* ("adabiy asos") deb nomlanadi;

- aniqlik va tushunarlik talab qilinadi (ГОСТ 7.25);

- chastotani hisobga olish (ГОСТ 7.25; Z39.19) – matnlar va so'rovlar chasticligi tezaurus tilining foydalanuvchilar va hujjatlar tiliga yaqinroq bo'lishiga imkon beradi (Z39.19);

- uslubiy betaraf – neytral terminni tanlash. Masalan, Z39.19 standartida *underdeveloped countries* (rivojlanmagan mamlakatlar) birikmali termin o'rniغا *developing nations* (rivojlanayotgan davlatlar) terminini qo'llash tavsiya etiladi. Bu holatda deskriptor sifatida neologizmlar, jargon iboralari va slengdan qochish kerak.

Tezaurussunos A.S.Gerd deskriptorlarni tanlashda iyerarxik jihatdan bo'ysunuvchi deskriptorlarning leksik strukturasini hisobga olishni ta'kidlaydi [Герд 2005, 123], ya'ni ikki yoki undan ortiq sinonimlardan leksik tuzilishi o'ziga bo'ysunuvchi terminlarda takrorlanadigan turi deskriptor hisoblanadi. Masalan, *dislokatsiyaning vujudga kelishi* va *dislokatsiyaning paydo bo'lishi* terminlarida ikkinchi termin deskriptor sanaladi, chunki *dislokatsiyaning geterogen paydo bo'lishi*, *dislokatsiyaning gomogen paydo bo'lishi* terminlarida paydo bo'lmoq ifodasi takrorlanmoqda.

AQTda, asosan, *yuqori-quyi* deb ataluvchi jins-tur iyerarxik munosabatlaridan foydalaniladi. Jins-tur munosabatlari ikki deskriptor o'rtasida amalga oshadi. Bunda aloqalar quyi darajadagi tavsiflovchi tushunchasi ko'lami yuqori darajadagi tavsiflovchi tushuncha doirasiga kirishi talab qilinadi (bu haqdagi ma'lumot 3.3-bo'limda). Shuningdek, AQTda bo'lak-butun deb ataluvchi iyerarxik munosabatlar ham o'rnatilishi mumkin (bu haqda batafsil 3.2-bo'limda).

AQTda assotsiativ munosabatlar iyerarxik hisoblanmaydi [Лукашевич 2010, 44]. Axborot-qidiruv tezauruslari deskriptorlari o'rtasida o'rnatiladigan assotsiativ munosabatlarning asosiy vazifasi – indekslash yoki qidiruv uchun foydali qo'shimcha deskriptorlarni ko'rsatish. An'anaviy axborot-qidiruv tezauruslarini yaratishdan asosiy maqsad ularning birliklari (deskriptorlari)dan qo'lda

indekslash jarayonida hujjatlarning dolzarb mavzularini ta'riflashda foydalanishga qaratilgan. Shuning uchun ham AQT deskriptorlari to'plamining narsa-predmet sohasiga oid hujjatlar mavzusini tavsiflashi ahamiyatlidir. Shu bilan birga, bunday tezaurus bo'yicha indekslash jarayoni lingvistik, grammatik bilimlar, shuningdek, professional indeksatorlarning fan sohasiga oid bilimiga tayaniлади. Indeksator avval matnni to'liq o'qib chiqishi, uning mohiyatini anglashi, so'ngra axborot-qidiruv tezaurusida ko'rsatilgan deskriptorlardan foydalanib, matn mazmun-mundarijasini ifodalashi kerak. Indeksator matnda foydalanilgan barcha terminlarni tushunishi lozim. Matnning asosiy mavzusini tavsiflash uchun ko'p termin talab qilinmaydi.

N.V.Lukashevich axborot-qidiruv tezaurusining formal modelini quyidagicha taqdim qiladi [42]:

$$AQT = \langle D_{th}, T, R_H, R_A, A_T \rangle,$$

bu o'rinda:

D_{th} – muayyan predmet sohasi tushunchalariga muvofiq keladigan predmet sohasi deskriptorlari to'plami; "th" indeksi esa, bu holatda, AQT mualliflari tomonidan deskriptorlar terminlari tarkibiga mazkur predmet sohasiga doir muhim hujjatlarning asosiy mavzularini aks ettirish uchun zarur terminlar kiritilganini bildiradi;

T – predmet sohasi terminlari to'plami, bunda: D tegishli T_{ga} ;

R_H – axborot-qidiruv tezaurusining iyerarxik munosabatlari;

R_A – axborot-qidiruv tezaurusining assotsiativ munosabatlari;

A_T – iyerarxik munosabatlarning tranzitivligi aksiomalari.

Ta'kidlash joizki, AQTning milliy va xalqaro standartlarda ta'riflangan modeli hujjatlarning qo'lda, ekspert tahlili jarayonida foydalanishga mo'ljallangan. Matnlarni avtomatik qayta ishlashga ixtisoslashgan AQT predmet sohasi tuzilmasi va tili (terminologik apparati) to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tezaurusda ko'rsatilgan terminlar o'rtasidagi munosabatlar avtomatik rejimda foydalanish uchun yetarlicha formallahgan bo'lishi talab qilinadi.

Umuman, Ontologiyalar va ontologik turdag'i boshqa manbalar ko'plab sohalarda qo'llaniladi, natijada dolzarb muammolarning hal etilishiga erishiladi. Shu bois ontologiyani yaratish amaliy masalalarni hal qilishga yordam beradi. Ko'p hollarda ontologiyadan foydalaniladigan quyidagi sohalar ko'rsatiladi:

- mashina tarjimasi;
- savol-javob tizimlari;
- ma'lumot qidirish;
- bilimlarni olish tizimlari;
- kompyuter va shaxs o'rtasidagi muloqotni o'tkazish tizimlari;

– tilni tushunish tizimlari.

Izlanishlar davomida hozirgi vaqtida ontologiyalar bilimlarni namoyish qilish, sun'iy intellekt va kompyuter ma'lumotlarini qayta ishlash bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga egaligi ma'lum bo'ldi. Xususan, tilshunoslik sohasida ontologiyalardan matn korpusining semantik annotatsiyasi, mashina tarjimasi, ko'p ma'nolilikni avtomatik hal qilish va kontekstga asoslangan omonimiyanı aniqlash, shuningdek, quyi darajadagi ontologik turdagı resurs, lug'at va tezauruslarni yaratishda foydalaniishi ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari, ko'p tilli ontologiyalardan tarjimonlar tomonidan domen bilimlari va tegishli lug'atni o'z ichiga olgan ma'lumot manbalari sifatida foydalaniladi.

Adabiyotlar

- Азарова, И.В., Митрофанова О.А., Синопальникова А.А. 2003. «Компьютерный тезаурус русского языка типа WordNet». *Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии*. Труды Международной конференции Диалог' 2003, 43-50. Москва.
- Азарова, И.В., Синопальникова А.А., Смрж П. 2004. «Представление устойчивых лексических сочетаний в компьютерном тезаурусе RussNet». *Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии*. Труды Международной конференции Диалог' 2005, 11-16. Москва.
- Азарова, И.В., Синопальникова А.А., Яворская М.В. 2004. «Принципы построения wordnet-тезауруса RussNet». *Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии*. Труды Международной конференции Диалог'2004, 542-547. Москва.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. Manba:// <https://lex.uz/docs/5058351>
- Begmatov, E., Ne'matov H., Rasulov R. 1989. "Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari)" *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 35-40. Toshkent.
- Buenaga, Rodriguez M., Gomez-Hidalgo J., Diaz-Agudo B. 1997. "Using WordNet to complement training information in text categorization". In *Proceedings of the 2nd International Conference on Recent Advances in Natural Language Processing* (RANLP 1997), 150-157. Bulgaria.
- Burgun, A., Bodenreider O., Aubry M., Mosser J. 2004. *Dependence relations in Gene Ontology: A preliminary study. Workshop on The Formal Architecture of the Gene Ontology*. Leipzig, Germany. May: 28-29.

- Cruse, D. 1986. *Lexical Semantics*. Cambridge. University Press.
- Fellbaum, Ch. 1998. *A Semantic Network of English Verbs*. In: Fellbaum, C (ed) WordNet – An Electronic Lexical Database. The MIT Press: 69-104.
- Guarino, N. 1998. "Formal Ontology and Information Systems". In N. Guarino, editor, *Proceedings of the 1st International Conference on Formal Ontologies in Information Systems*, 3-15. Trento, Italy, IOS Press.
- Guarino, N., Giaretta P. 1995. "Ontologies and Knowledge Bases: Towards a Terminological Clarification". In N. Mars (ed.) *Towards Very Large Knowledge Bases: Knowledge Building and Knowledge Sharing*, 25-32. IOS Press, Amsterdam.
- Добров, Б.В., Лукашевич, Н.В. 2006. «Вторичное использование лингвистических онтологий: изменение в структуре концептуализации». *Восьмая Всероссийская научная конференция «Электронные библиотеки: перспективные методы и технологии, электронные коллекции»*. Владимир-Сузdalь.
- Добров, Б.В., Лукашевич Н.В. 2005. «Онтологии для автоматической обработки текстов: описания понятий и лексических значений». *Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: Труды международной конференции "Диалог'2005*, 138-142. Москва: Наука.
- Добров, Б.В., Лукашевич Н.В. 2008. «Транзитивные нетаксономические отношения в онтологическом моделировании». *Труды симпозиума Онтологическое моделирование*, 229-259. Институт проблем информатики РАН.
- Добров, Б.В., Лукашевич Н.В., Невзорова О.А. 2002. «Технология разработки онтологий новых предметных областей». Труды Казанской школы по компьютерной лингвистике TEL-2002. Выпуск 7. 90-106. Сулайманова – Казань.
- Добров, Б.В., Лукашевич Н.В., Сыромятников С.В. 2003. «Формирование базы терминологических словосочетаний по текстам предметной области». Труды пятой всероссийской научной конференции "Электронные библиотеки: Перспективные методы и технологии, электронные коллекции: 201-210.
- Jamolxonov, H. 2005. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Darslik. Toshkent: Talqin.
- Miller G. 1998. "Nouns in WordNet". In: Fellbaum, C (ed) WordNet – An Electronic Lexical Database, 23-47. The MIT Press.
